

## HIKMATLI SO'Z VA MAQOLLARNING INSON HAYOTIDAGI TA'SIRI

Rustamova Shoira Egamberganovna

*Xorazm viloyati Urganch shahar Ranch texnologiyalari universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hikmatli so'z va maqollarning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati, ularning insonning rivojlanishidagi ta'siri, madaniy merosni saqlab qolish va uni avloddan avlodga otkazish haqida ma'lumotlar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Hikmat, qisqalik va chuqur ma'no, madaniy meros, emotsional ta'sir, ulug'vorlik, tajribaga asoslangan, madaniy qadriyatlar, qisqalik va aniq g'oya, nisbat va ijobiylik xususiyatlari.*

**Annotation:** *This article provides information about the role and importance of wise sayings and proverbs in human life, their impact on human development, and the preservation of cultural heritage and its transmission from generation to generation.*

**Key words:** *Wisdom, brevity and deep meaning, cultural heritage, emotional impact, grandeur, based on experience, cultural values, brevity and clear idea, proportion and positivity.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о роли и значении мудрых слов и пословиц в жизни человека, их влиянии на развитие человека, сохранении культурного наследия и его передаче из поколения в поколение.*

**Ключевые слова:** *Характеристики мудрости, краткости и глубокого смысла, культурного наследия, эмоционального воздействия, величия, эмпирических, культурных ценностей, краткости и ясности идеи, пропорциональности и позитивности.*

Hikmatli so'z- hayotiy tajribalar va donolikni ifodalovchi, muhim ma'lumot yoki fikrni o'z ichiga oladigan iboradir. Bu so'zlar ko'pincha hayotdagi qiyinchiliklar, ahamiyatli qarorlar yoki insoniy munosabatlar kabilarga yo'naltirilgan maslahatlar yoki o'gitlar shaklida bo'ladi. Hikmatli so'zlar ko'p hollarda maqol va aforizmlar sifatida ifodalanadi, ularda qisqa va aniq, lekin chuqur ma'no bo'ladi. Ular insonni o'zini o'zi anglashiga, muammolarni yengishga va sog'lom qarorlar qabul qilishiga yordam beradi. Hikmatli so'zda ham tarbiya, ta'lim haqida chuqur ma'no yaratilgan.

Hikmatli so'zlar - tugal fikrni anglatuvchi, o'tkir mazmunli qisqa va lo'nda ibora, bayt, jumla. Xalq maqollaridan farqli ravishda hikmatli so'zlar kelib chiqishi jihatidan ma'lum bir shaxs (yozuvchi, shoir, publitsist, faylasuf, olim, davlat arbobi va boshqalar)ga mansub bo'lib, individualligini saqlab qoladi. Hikmatli so'zlarning mustaqil janr shaklidagi namunalari bilan birga ilmiy, falsafiy, tarixiy hamda badiiy asarlar tarkibida uchraydiganlari ham bo'ladi. Ba'zan asar boshdan-oyoq hikmatli so'zlardan iborat bo'lishi ham mumkin (Forobiy va boshqalar). Alisher Navoiyning ayrim asarlari Hikmatli so'zlarga boy („Nazm ul-javohir“, „Arbain“, „Mahbub ul-qulub“ va boshqalar). Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o'zbek adabiyotida hikmatli so'zlarning ko'p qismi pand-nasihad, o'git, tanbeh shakllarida bo'ladi.

Hikmatli so'zlardan namunalar:

Do'stlik, sadoqatga belingni bog'la,

Gina, malomatdan tilingni bog'la. (Sa'diy Sheroziy)<sup>34</sup>

Xalq jonli tiliga, maqollarga yaqin hikmatli so'zlar ham ko'p uchraydi. Masalan: „O'qsiz soldat - qilichsiz qin“ (Nosir Qosimov),<sup>35</sup> „Tishi chiqqan bolaga chaynab bergan osh bo'lmas“ (A.Qodiriy)<sup>36</sup>. Ba'zi hikmatli so'zlar shaklan quyma holga kelib, ommaviy qo'llanishga o'tgach, maqolga aylanib qoladi. Hikmatli so'zlar har bir asarga, yozma satrlarga o'ziga xos xususiyat, mohiyat va mazmunni olib kiradi va bu kitobxonga o'zgacha ruh va ilhom bag'ishlaydi.

“Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'ramagan o'ziga zolim”. Alisher Navoiy<sup>37</sup>

“Qisqalik - iste'dodning singlisi” Chexov

“Hammaga do'st bo'lgan odam hech kimga do'st emas” Arastu

“Haqiqatdan qo'rqmaydigan odamning yolg'ondan qo'rqishiga asos yo'q” Jeferson

“Hayotning har lahzasi go'zal, Umrning har dami g'animat” Anvar Obidjon

“O'zгалar sirini oshkor etish - sotqinlik, o'z sirini oshkor etish axmoqlikdir” Valter

O'zbek yozuvchilaridan Hamza, A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, H.Olim-jon, A.Qahhor, Shayxzoda kabi san'atkorlar o'z asarlarida hikmatli so'zlarning zamonaviy namunalarini yaratib, o'zbek adabiy tilining rivojiga samarali hissa qo'shdilar.

Hikmatli so'zlarning asosiy xususiyatlari mavjud:

1. Ma'no chuqurligi: Hikmatli so'zlar ko'pincha murakkab, chuqur ma'nolarni o'z ichiga oladi va hayotning turli jabhalariga murojaat qiladi.

2. Umumiy qoidalar: Bu so'zlar insoniyat tajribasini ifodalaydi va ko'p hollarda har bir inson uchun dolzarbdir.

3. Qisqa va aniq: Hikmatli so'zlar odatda qisqa, ammo kuchli ifoda etilgan bo'ladi, bu esa ularning esda qolishini osonlashtiradi.

4. O'ylantiruvchanlik: Ular nigohlarni yangilaydi, fikrlashni rag'batlantiradi va insonni o'z ichki dunyosiga qarashga undaydi.

5. Tarbiya beryapti: Hikmatli so'zlar ko'pincha tarbiya beruvchi va yaxshilikka yo'naltiruvchi maqsadni ko'zlaydi. Bu xususiyatlar hikmatli so'zlarni qadrli va ahamiyatli qiladi.

Maqollar xalq og'zaki adabiyotining bir qismi bo'lib, muayyan madaniyat va an'analar doirasida shakllanadi. Ular qisqa va oson yodda saqlanadigan shaklda bo'ladi, bu esa ularni oson tarqatish va abadiy saqlash inkonini beradi. Maqollar hayotiy haqiqat, axloqiy qadriyatlar va insoniyat tajribasidan kelib chiqadi. Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir<sup>38</sup>. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrimaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Tarbiya-pedagogika bola tarbiyasining fani bo'lib, uning salomatligi va baxt-saodati uchun muhimdir. Maqollarda esa tarbiya mohiyati ochiq yoritib beriladi.

<sup>34</sup> Hikmatli so'zlar (Sa'diy Sheroziy)<sup>34</sup>

<sup>35</sup> O'qsiz soldat qilichsiz qin "Alifbo" Nasir Qosimov dostonidan

<sup>36</sup> "Qoraqul" asaridan (Abdulla Qodiriy)

<sup>37</sup> Hikmatli so'zlar (Alisher Navoiy) asaridan

<sup>38</sup> Abdulla Avloniy hikmatlari

Maqollarni hayot qomusi, xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqollar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiidir.

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Biz o'zaro muloqat jarayonida o'z fikrimizni dalillash uchun xalq maqollaridan ko'p foydalanamiz. Bu narsa bizga nutqimizni go'zal, jozibali va ishonchli bo'lishida yordam beradi. Masalan farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: "Sen farzandingni tarbiyalama, eng avvalo o'zingni tarbiya qil. Farzandingga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o'sha ishni o'zing qilsang, farzanding sen kabi shu ishni aynan takrorlaydi. Farzand - oynadir".

Xalqimiz boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o'rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. Bizga ma'lumki, xalq og'zaki ijodi o'z ichiga dostonlarni, afsonalarni, maqollar va matallarni oladi. O'zbek millatini ma'naviy qiyofasini, o'zligini ko'rsatib beradigan xalq og'zaki ijodining namunasi maqollar ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Maqollarni o'rganish va o'rgatish yoshlarimiz ma'naviyatida o'z millatiga nisbatan hurmatni, qalbida faxr tushunchasini beradi. Xalqimiz turmush tarzi ifodalangan manbalardan biri sifatida xalq og'zaki ijodi, deb qarashimiz mumkin. Maqollar esa xalq og'zaki ijodining yirik namunasi. Maqollarni o'rganishimiz o'z tilimizga nisbatan hurmatni, uni yoshlarimiz ongiga singdirib ularda qadriyatlarimizga nisbatan faxr tuyg'usini rivojlantirishga katta yordam beradi. Shu bilan birga maqollarimizni chet el maqollari bilan taqqoslash ularni o'rganish ham boshqa millatlarga nisbatan hurmatni va ularni dunyo qarashidan boxabar bo'lishimizga katta turtki bo'ladi.

Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kundan boshlab, bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o'rni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Xalq maqollari asrlar davomida sayqal topib, mumtoz qiyofa va mazmun kasb etgan, nutqda faol ishtirok etuvchi paremik birlik sifatida xalq qadriyatlari, urf-odat va an‘analari, tarix va madaniyat, ta‘lim va tarbiya, odob-axloq masalalari talqini va tavsifini, umuman, millat mentalitetini to‘la namoyon etuvchi ko‘p qirrali hodisadir. Xalq og‘zaki ijodi tomonidan yaratilgan maqollarning mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she‘riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo‘lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me‘yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o‘z in‘ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo‘qki, u maqollarda o‘z aksini topmagan bo‘lsin. Maqollar o‘z navbatida pedagogika sohasida, ya‘ni ta‘lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Maqollar to‘plamlarda yetmishdan ortiq mavzu guruhlariga bo‘lingan. Ularning ichida nutq madaniyati, muomala, muloqat odobi masalasiga oidlarining o‘zi ichki tasniflashda oz so‘zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso‘zlik, to‘g‘ri so‘zlash, mushohadakorlik, Vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi va hokozo mavzularni o‘z ichiga oladi. Albatta, biz ulardan o‘z o‘rnida unumli va o‘rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Maqollardan nam • Avval o‘yla, keyin so‘yla.

- Birovni ustidan kulmagin zinhor, sening ham ustingdan kuladiganlar bor.
- Birovga choh qazisang, o‘zing tusharsan.
- El og‘ziga elak tutib bo‘lmas
- Ignachining ming urgani, temirchining bir urgani
- Kambag‘al bo‘lsang ko‘chib boq
- Kambag‘alni tuyaning ustida ham it qopadi
- Kamtarga kamol, manmanga zavol.
- Kasalini yashirsang, istimasi oshkor qiladi.

Hikmatli so‘z bo‘lsa Ahli qalam orasida shunday naql yuradi: “eng murakkab ish sodda yozish, undan ham qiyini qisqa yozish”. Haq gap. Hamma ham buning uddasidan chiqa olmaydi. Qisqalik va soddalik kitobxonning g‘oyaviy maqsadni tez “hazm qilishi“ uchun imkon yaratadi. Shuning uchun ham allomalardan biri soddalik talantning opasi bo‘lsa, qisqalik singlisidir,- degan. Bu hikmatdan shu narsa anglashiladiki, soddalik qisqalikka, qisqalik esa soddalikka yaqin turadi va bir-birini talab etadi. Serso‘zlikdan qochish lakonistik uslubda fikr ifoda etish bu – san‘at va mahorat. Alisher Navoiy “chin so‘z mo‘tabar yaxshi so‘z muxtasar”<sup>39</sup>- degan. Shunga monand holda aytish mumkinki, sara so‘z soda so‘zdir.

Ijodi yuqori cho‘qqiga yetgan adiblarning aksariyati qisqa shakl, qisqa ifodalarni xush ko‘radigan bo‘lishadi. Yoshligida dilogiya, trilogiya hatto, tetralogiya yozgan adiblar ham olam-olam ma‘no beruvchi hikmatlarni, chizgilarni qayd etishni ma‘qul topishadi.

Taniqli shoir, jurnalist do‘stimiz Muhammad Ismoil navbatdagi kitobiga “Gapning qisqasi yaxshi”<sup>40</sup> deb nom beribdi. Ko‘p yillar mobaynidagi ko‘rgan, kuzatgan kechinmalari

<sup>39</sup> Alisher Navoiy “chin so‘z mo‘tabar yaxshi so‘z muxtasar” “Majolis un-nafois “asaridan

<sup>40</sup> Muhammad Ismoil navbatdagi kitobiga “Gapning qisqasi yaxshi”

hikmat tarzida qog'oz yuziga tushgan. Shulardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilamiz kitobni o'qing, shunchaki o'qimang balki o'qib uqing, huzurlanasiz, fikrlab lazzatlanasiz, ruhlanasiz. Ehtiyot bo'lib ish tutasiz, yozuvchining yon daftari uning jon daftaridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "O'zbek xalq maqollari" kitobi
2. <https://n.ziyouz.com>
3. "Gapning qisqasi yaxshi" Muhammad Ismoil
4. <https://www.hikmatlar.uz>
5. "Dengizdan qatralar" Erkin Siddiqov 1976
6. <https://uz.wikipedia.org>
7. "Alifbo dostoni Nosir Qosimov